

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINI O'QITISHDA INTEGRATSIYA
VA INNOVATSIYALAR**

U.Abdurasulova.¹

¹*Is'hoqxon Ibrat nomidagi*

Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 09.01.2025

Revised: 10.01.2025

Accepted: 11.01.2025

Mazkur maqolada oliv ta'lim tizimida hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishda integratsiyadan foydalanish va innovatsiyalarni o'quv jarayonlariga joriy etish hamda bunda e'tiborga olinadigan jihatlar haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR:

*pedagogik
yondashuv, integratsiya
va innovatsiya,
innovatsion
texnologiyalar,
innovatsion
yondashuvlar,
pedagogik
innovatsiyalar, ta'lim
metodlari, nutq
madaniyati, muammoli
ta'lim*

KIRISH. Bugungi kunda o'zbek adabiy tilini o'qitish tizimida bir qator yangi o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu jarayon, avvalo, yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va ta'lim metodlarini qo'llash orqali talabalarga tildan foydalanishni yanada samarali qilishga qaratilgan.

Oliy ta'lim tizimida hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishda integratsiyadan foydalanish va innovatsiyalarni o'quv jarayonlariga joriy etish talabalarning til bilimi, tildan foydalanish ko'nikmasi, nutq madaniyatini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integratsiya bir nechta fanlar yoki bilim sohalarini bir-biri bilan bog'lab o'qitish jarayonini anglatadi. O'zbek adabiy tilini o'qitishda integratsiya usullari turli sohalarni birlashtirgan holda, talabalarga bilimlarni yanada chuqurroq va tizimli ravishda taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, o'zbek adabiy tilini o'qitish jarayonida adabiyot, tarix, geografiya kabi fanlarni integratsiya qilish talabalarga tildan faqat kommunikativ vosita sifatida foydalanishni emas, balki uni o'zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstida tushunishni ham o'rgatadi. O'zbek adabiy tilining o'qitilishi faqat grammatik va leksik qoidalarni o'rgatish bilan cheklanmaydi. Talabalarga tilning adabiy jarayonlar bilan bog'liq jihatlari ham tushuntiriladi.

Innovatsiyalar – bu ta'limgarayoniga yangiliklarni kiritish va yangi metodlarni qo'llashni anglatadi. O'zbek adabiy tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar, avvalo, texnologiyalar va yangi pedagogik metodlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon talabalarga ko'proq interaktivlik va ta'limga amaliyat bilan bog'lashga yordam beradi. Hozirgi kunda o'zbek adabiy tilini o'qitishda raqamlar texnologiyalar va innovatsion platformalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Keng ma'noda "innovatsiya" pedagogik tizimga yangilik kiritish yo'li bilan ta'limgartarbiya jaryonini maqbullashtirish, samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Pedagogik tizimga uning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarnigina innovatsiya deb tushunamiz. Ushbu tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va natijadorlikka erishishga oid fikr, g'oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin.

Innovatsion ta'limgartundayki, u o'zini rivojlantirish istagiga ega barcha ishtirokchilarning to'laqonli rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, boshqacha aytganda, innovatsion ta'limgartuvchi va rivojlantiruvchi ta'lmdir. O'quvchilarda o'qish istagini shakllantirish va buni malakaga aylantirish – barcha innovatsion ta'limgartining asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunday ta'limgartayoni o'quvchining o'quv-bilish faoliyatida faol ishtirokini va uning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishni nazarda tutadi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari:

o'zbek adabiy tilini o'qitishda video darslar va o'quv ilovalaridan samarali foydalaniladi. Bu texnologiyalar talabalarga ko'proq vizual va audio materiallar orqali tilni o'rGANISHGA imkon beradi;

online ta'limgart platformalari yordamida talabalar onlayn tarzda o'z bilimlarini tekshirishlari va boshqa talabalar bilan hamkorlikda ishlashlari mumkin;

mobil qurilmalar orqali talabalar o‘zbek adabiy tilini o‘rganish uchun maxsus ilovalardan foydalana olishadi. Bu talabalarga doimiy ravishda o‘z bilimlarini mustahkamlab va yangilab borishga yordam beradi;

innovatsion metodlar. Masalan, talabalar til o‘rganishda o‘z bilimlarini ta’limiy o‘yinlardan foydalangan holda mustahkamlab borishlari mumkin.

O‘quv mashg‘uloti jarayonida qo‘llanayotgan innovatsion metodlar talabalarni tilni o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishga va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Masalan, muammoli o‘qitish usuli talabalarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda tilni qo‘llash imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘qitish tizimida integratsiya va innovatsiyalar talabalarning tilni o‘rganish jarayonini samarali bo‘lishiga yordam beradi. Integratsiya orqali turli fanlar bir-biri bilan bog‘lanadi, innovatsiyalar esa o‘qitish jarayonini amaliyot bilan bog‘lashga yordam beradi. Shu sababli, integratsiya va innovatsiyalarni qo‘llash ta’lim tizimining sifatini oshirishi va talabalarning bilim darajasini yanada yuksaltiradi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa o‘qituvchilar yangi texnologiyalar va metodlarni muntazam o‘rganib borish, resurslarni va ta’lim jarayonini doimiy ravishda yangilab turish zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Абдурасурова У. Она тили таълимида ўқувчиларда морфологик компетентликни шакллантириш ва ривожлантиришнинг замонавий технологиялари. Пед. фан. бўй. фал. док... дис. – Наманган, 2021.
2. Xasanov A.A. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish imkoniyatlari // Pedagogik ta’lim, 2011. – № 5.
3. Хусанбоева К. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. Монография. –Тошкент, 2003
4. Қобилова З., Алиева Г. Адабиёт дарсларида фанлараро интеграция // Тил ва адабиёт таълими, 2016. – № 1.
5. Baqoyev, Navrozjon (2023). O‘ZBEK TILIDAGI “QO‘L” SO‘ZI VA U QATNASHGAN IBORALAR SEMANTIKASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (2), 414-417.
6. Bakoev, N., & Abdumatalova, M. (2023). YAPON TILIDAGI KANSAI SHEVASI VA O‘ZIGA XOSLIGI. Interpretation and researches, 1(17).

7. Bakoev, N., & Yuldasheva, S. (2023). YAPONIYA TA'LIM TIZIMI. Interpretation and researches, 1(17).
8. Bakoev, N., & Ravshanov, S. (2023). YAPON TILIDAGI IYEROGLIFLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 84-87.
9. Bakoev, N., & Sheraliyeva, F. (2023). YAPONIYA TURIZM SOHASI VA RIVOJLANISHI. Interpretation and researches, 1(18).
10. Bakoev , N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) DISADVANTAGES AND ITS SOLUTIONS. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 53–57. Retrieved from
11. Umida Abdurasulova, & Bakoev Navruzjon (2024). TILLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Science and innovation, 3 (Special Issue 27), 84-87. doi: 10.5281/zenodo.11079778
12. Bakoev, N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING'S DISADVANTAGES.«. МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА.
13. Navro'zjon, B. (2024). YAPON VA O 'ZBEK ADABIYOTIDAGI MIFOLOGIK OBRAZLAR. JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS, 1(2), 319-323.
14. Abdurasulova, U. S. (2019). INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(7), 266-270.
15. Абдурасулова, У. (2020). О 'QUVCHILARDA MORFOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 1).
16. Sadullaevna, A. U. (2020). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES FOR DETERMINATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE EFFICIENCY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8.
17. Abdurasulova, U. S. (2019). WAYS OF IMPROVING MORPHOLOGICAL COMPETENCE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 356-369.